




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR OYI (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 61-222-75-87


www.qrstat.uz

2023 yil yanvar oyida



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 950,3 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 83,0 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar oyida Qoraqalpoq'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 1144,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 68,0 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 30,9 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 34,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 22,9 % ga pasayishidir. Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 27,1 % ga oshganligi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.



*2023-yil yanvar oyida
O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*

Ohah tosh



Tabiiy gaz




| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|-------------------------|---------------------|---------------------|--------------|
| Ohah tosh, tonna | 27461,5 | 16107,0 | -11354,5 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 134,6 | 94,7 | -39,9 |

Gaz kondensati



| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|-------------------------|---------------------|---------------------|--------------|
| Gaz kondensati, ming t. | 7,1 | 5,8 | - 1,3 |


2023-yil yanvar oyida



2023-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 950,3 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,0 % ini tashkil etdi.



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,1 % ni (2022-yilning yanvar oyida – 0,02 %), oʼrta-yuqori texnologiyali – 61,6 % (70,2 %), oʼrta-quyi texnologiyali – 2,4 % (2,2 %) va quyi texnologiyalisi – 35,9 % (27,6 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 61,1 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 59,4 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 17,3 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,0 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 74,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 68,3 %) tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Aroq




Paxta chigit




Sement




**O'simlik yog'i
(tozalangan)**



Kalava ip



**Yumshoq bug'doy
va spelta uni**



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda 0,9 ming tonna tozalangan guruch (2022- yilning mos davriga nisbatan 76,7 % ga), 324,0 ming litr aroq (3,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 2,9 ming tonna paxta tolasi (4,9 %), 4,5 ming tonna paxta chigit (4,2 %), 1,0 ming tonna kalava ip (25,2 %), 18,6 ming tonna portlandsement (27,5 %), 0,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (32,4 %), 6,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,2 %), ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|--------------------------------------|---------------------|---------------------|--------------|
| Aroq, ming litr 100 % li spirit | 312,6 | 324,0 | 11,4 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), t | 749,4 | 506,3 | - 243,1 |
| Paxta tolasi, t | 3101,0 | 2947,9 | - 153,1 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, t. | 160,9 | 220,2 | 59,3 |
| Polietilen, ming t. | 26,8 | 22,9 | - 3,9 |
| Polipropilen, ming t. | 7,4 | 6,5 | - 0,9 |

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 70,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 60,9 % ni, fizik hajm indeksi 58,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 578,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 89,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,5 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 139.7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14.4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 88,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 28,9 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 147.3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 87,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 31,7 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 17,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2022- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 95,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 24,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 108,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar oyida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 68,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 83,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar oyida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 39,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 159,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 947,1 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 77,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 182,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,9 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 77,1 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|-----------------------------------|---------------------|---------------------|--------------|
| Elektroenergiya, mln. kVt.s | 554,0 | 504,9 | -49,1 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 8,5 | 10,3 | 1,8 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,3 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---------------------|---------------------|--------------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 539,5 | 522,1 | -17,4 |
| Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 1315,3 | 1022,7 | -292,6 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,2 % ga va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chinqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 22,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 157,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 13,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (76,1 %) darajasidan past ko'rsatkich Taxtako'pir (31,4 %), Qo'ng'irot (43,9 %), Ellikqal'a (51,1 %), Qorao'zak (54,9 %), Kegeyli (56,8 %), Shumanay (58,6 %), Qonliko'l (59,0 %), Amudaryo (60,1 %), Bo'zatov (60,4 %), To'rtko'l (61,6 %), Chimboy (63,3 %) hamda Beruniy (68,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Xo'jayli (152,6 %) hamda Taxiatosh (127,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 82,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 17,6 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 70,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 29,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 76,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 76,7 % ni tashkil etdi.

